

**MUHAMMAD YUSUF ASARLARIDA ALLYUZIYA,
IQTIBOS VA REMINESSENSIYA SHAKLIDA QO'LLANGAN
INTERTEKSTLAR TAHLILI**

Tursunova Lobar

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti
O‘zbek filologiyasi fakulteti Lingvistika (O‘zbek tili) yo‘nalishi
2- kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Muhammad Yusuf she’rlari juda go‘zal va tili jihatdan sodadir. Shoир asarlarini o‘qiganimizda yoki tinglaganimizda asardagi o‘xshatishlar va qiyoslashlar har bir kitobxonni jalb qilmasdan qolmaydi. Yozuvchi asarlaridan namunalarda tahlil qilganimizda tilshunoslikka oid intertekstuallik namunalarining turli ko‘rinishini uchratishimiz mumkin. Intertekstualli namunalari orqali yozuvchining kimga yoki nimaga ishora qilayotganini yaqqol guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: Muhammad Yusuf asarlari, intertekstuallik, maqollar, doston, rivoyat, tarixiy shaxs nomlari

Muhammad Yusufning har bir asarlarini o‘qigan o‘quvchi o‘ziga bir qancha ma’lumot va yangiliklar olishi mumkin. Chunki shoирning asarlari har bir insonni o‘ziga jalb qilmasdan qolmaydi. Muhammad Yusuf she’rlarining mazmuni va tili juda sodda hamda tushunarli tarzda ifodalangan. Asarlardan namunalar yoki parcha o‘qiganimizda asarning nimaga yo‘naltirilgani va qanday voqeа va hodisaga ishora qilayotganini anglab olishimiz mumkin.

Muhammad Yusuf asarlarida intertekstuallik namunalarining bir qancha turini ko‘rishimiz mumkin.

Intertekstuallikning badiiy matnda keng tarqalgan turlaridan biri bu – iqtibosdir. Iqtibosni sitata, havola leksemalari bilan sinonim qo‘llash holatlari ko‘p uchraydi. Bu haqida yuqoridagi boblarimizda aytib o‘tgan edik. Mumtoz adabiy matnlarimizda iqtibos sifatida Qur’on va hadislardan ko‘plab keltirilgan. Muhammad Yusuf asarlarida ham iqtibos intertekstuallikni yuzaga keltirgan birliklardir. Adib asarlarini tahlil qilar ekanmiz, asosan, nasriy parchalardan iqtibos keltirilgan holatlarga guvoh bo‘ldik. “Qora quyosh” dostonidagi shunday iqtiboslardan ba’zilarini keltiramiz.

«*Sibirdagi sargardonlik yillarim bir hamyurtim bilan uchrashib qoldim. Yig ‘lab ko‘rishdik. Hol-ahvol so‘rashdik. Men uni ham o‘zimga o‘xshab beayb badarg‘a bo‘lganlardan biri ekanligini sezib tursam ham so‘radim: — Sizni nega kamadilar,*

birodar? — Sulaymon Azimovning «dumi»san, deb! — Kimning-kimning? — Aytdim-ku, Azimovning... Anchadan keyin biroz o'zimga kelib, sekin borib yelkasidan quchdim: — Uni taniysizmi? — Yo'q, ko'rmanman... — Unda keling, tanishvolaylik, — dedim. — Menman o'sha siz aytgan odam!..» Markazqo'mning sobiq kotibi Sulaymon Azimovning xotiralaridan.

“Qora quyosh” dostonining mazmuniga e’tibor beradigan bo‘lsak, doston XX asr yurt uchun shahid bo‘lganlar xotirasini kuylaydi. Yuqorida keltirilgan iqtibos ham asarning asl mohiyatini idrok qilish uchun keltirilgan intertekstdir.

Ushbu iqtibosda muayyan nasriy matnning hech qanday o‘zgarishsiz bir qismidan foydalanish holatini ko‘rishimiz mumkin.

Bundan tashqari shoir she’rlarida iqtibosning muallifi ko‘rsatilmagan holatlar ham bor. Bu holatni adibning ko‘plab she’rida uchratamiz.

Iqror

Ana, ular qilar bulbullarga do'q:

“Ey qush, bu bog'larning men bulbuliman!”...

Shoirlar bilan hech oshnoligim yo'q,

Men yorug‘ dunyoda ko'nglim quliman.

Adibning “Men bittadurman” she’rida ham yuqoridagi holatni ko‘ramiz:

Deydilar: muhabbat bilmas masofa,

Ayriliqni pisand qilmas masofa.

Kelursan o'zing deb bir kun insofa —

Gohi Toshkent, gohi Urgutdadurman.

Shoir ijodida iqtiboslarni o‘zlashtirma gap holida qo‘llagan holatlar ham mavjud. Quyidagi “Ko‘hna quduq” dostonidan keltirilgan misolda adib Jaloliddin Rumi tilidan aytilgan hikmatli so‘zni o‘zlashtirma iqtibos sifatida foydalangan:

Asli inson xoki qo'yilgan hamma joy aziz va muqaddasdir. Bas, shunday ekan, odamlar istagan qabr tuprog'ini ko'zlariga surtsin. Bundan kimga jabr bo'libdi. E'tiqodi o'lik kishilargina hech kimga va hech nimaga sig'inmaydilar. Kimning kimga sig'inishi esa o'z maylida. Men barcha qabristonga sig'inaman, dedi hofiz. Barcha musulmonu kufr qabriga. Zero, kufr yer yuzida emas, ko'ngilda. Men barcha toza dilga sig'inaman. Illo, toza dilda kufrga joy yo'q... Odamlar bir-birlarining diliga sig'insin, deganlar mavlono Rumi. Chunki inson ko'nglidan muqaddasroq Ka'ba ham yo'q!

Iqtibosning o‘zlashtirma gap holida qo‘llanilgani “Ruh to‘tisi”, “Shukr deysan sen qachon” she’rlarida ham mavjud:

Ruh to'tisi

Bosh bir kun tosh yostiqqa yetar,

Ruh to'tisi tanni tark etar.

Deydilar yosh tanlamas ajal,

Xudo bilar, kim oldin ketar...

Ushbu she'rda intertekstuallikni yuzaga keltirgan birliklar sifatida iqtibos bilan bir o'rinda perifrastik birliklarni ham aytishimiz mumkin. Ya'ni sarlavha perifrastik nom sifatida diniy tushunch ajalga leksemasiga ishora qilmoqda.

Shukr deysan sen qachon?

Ta'magirni tortqilab,

Nafsi qo'ymas deydilar.

Nokas o'zi to'ysa ham,

Ko'zi to'ymas deydilar.

Muhammad Yusufning "Nido" she'ri Usmon Nosir xotirasiga bag'ishlangan bo'lib, Intertekstul birlik sifatida iqtibosni ham epigrafni ham ko'rishimiz mumkin. Sababi ushbu she'rda Usmon Nosir tilidan aytilgan so'zlar ham epigraf, ham iqtibos sifatida keltirilgan:

Nido

«Shu choqdagi yuragimni tinglangiz, hoy hu...»

Usmon Nosir

"Shu choqdagi yuragimni tinglangiz, hoy hu..."

Aks-sadosi gumbirlaydi go'yo zambarak.

Sezgilarning beozori menimcha — tuyg'u,

Menga shodlik va gullarning lablari kerak.

Intertekst turi sifatida baholanadigan lisoniy birliklardan yana biri bu-sarlavhadir. A.Fatyeva sarlavhani intertekst turi sifatida ko'rsatadi.

Har qanday sarlavha asosiy matnning g'oyaviy mazmunidan kelib chiqqan holda tanlanib, u bilan semantik jihatdan uzviy aloqada bo'ladi. "Sarlavha lingvistik jihatdan matnning nomi bo'lsa, semiotik nuqtai nazardan matnning birinchi belgisidir." She'r sarlavhasi yoki undagi havoladan muallif nima demoqchi ekanligi, qaysi matnga ishora qilayotganligi yaqqol anglashiladi. Nasrdan ko'ra nazmda bunday misollar juda ko'p. Bu haqida yuqoridagi boblarimizda so'z yuritgan edik.

Intertekstuallik nazariyasi ko'ra muayyan matn o'zidan oldingi matn bilan dialogic muloqatga kirishadi. O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning mashhur "Lolaqizg'aldoq" she'ri intertekstuallik asosida yaratilgan. She'r shunday misralar bilan boshlanadi:

Lolaqizg'aldoq

Shavkat Rahmon xotirasiga

Mendan nima qolar:

Ikki misra she'r,

Ikki sandiq kitob,

Bir uyum tuproq.

*Odamlar ortimdan
Nima desa der,
Men seni o 'ylayman
O 'zimdan ko 'proq –
Lola, lolajonim,
Lolaqizg 'aldoq!*

Bu she'rning birinchi misrasi shoir Shavkat Rahmonning shunday nomdag'i she'rining sarlavhasi hisoblanadi. Muhammad Yusuf shoir xotirasiga bag'ishlab Shavkat Rahmonning nomidan she'r yozadi. Bu she'rni esa Shavkat Rahmonning o'z misralari bilan boshlaydi. Har ikkala matnga e'tibor berilsa, ulardagi shakl va mazmun ham uyg'unligini ko'rish mumkin¹:

*Mendan nima qolur...
Umr — qumsoat ham
yarimlab qoldi,
ko 'nglim to 'lgani yo 'q bilganlarimdan.
Yodimni og 'ritar kechirganlarim,
Ko 'pdir qilmaganim qilganlarimdan.*

Bu esa intertekstual birlik orqali muallif o'zidan oldin yaratilgan matn bilan vertikal aloqaga kirishganligi izohlaydi. Adib ijodidagi sarlavhaning matnlararo aloqaga kirishgan holatga yana bir misol qilib "Tillo sandiq" she'rini keltirish mumkin. Ushbu she'r biz bilgan mashhur "Tohir va Zuhro" badiiyatiga ishora qiladi.

*Tillo sandiq
Baland jardan tashlandi,
Tillo sandiq daryoga.
Yoringman deb yuzlandi,
Qorabotir Zuhroga.*

Yuqorida keltirilgan she'rlarda Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani qahramonlari sarlavha sifatida keltirilgan. Ushbu she'rlarning mazmuni bevosita sarlavha asosida shakllantirilgan. Bunda sarlavha intertekstual birlik sifatida ham "O'tgan kunlar" romaniga, ham ijodkorning ushbu she'rlaridagi aloqaga ishora qilmoqda. Jumladan, "Kumush" she'rida ham bu jarayon mavjud:

*Kumush
Marg 'ilonda Kumushni ko 'rdim,
Ko 'ziga yosh to 'lib turibdi.
Sochlarini maydalab o 'rib,
Otabekni izlab yuribdi.*

¹ M.Xomidova. "Badiiy matn perseptiyasida intertekstuallik" nomli nomzodlik dissertatsiyasi. T.:2021

Yuqorida keltirib o‘tgan tahlil na’munalarimizdan ma’lum bo‘ladiki, sarlavha interteks turi sifatida qo‘llanilganda tanlangan sarlavha oldindan keng omma uchun tanish bo‘lgan matnlar bo‘lishi lozim, aks holda matnni tushunish jarayonida kommunikativ muvaffaqiyatsizlik yuz beradi.

Demak, biz ham yuqoridagi fikr va ta’riflardan so‘ng Muhammad Yusuf o‘zining asarlarida intertekstuallikning bir qancha namunalarini qo‘llaganini tahlil qilamiz.

Xalq bo‘l, elim

Sen tebratgan beshagini Sohibqiron
Sening bolang yulduzlarga qo‘ygan narvon
Bir mayizni qirqa bo‘lgan bir tanu-jon (***Magol***)
Kunlaringga qaytay desang -xalq bo‘l elim!

Bo‘lar elning bolalari bir -birin der,
Bo‘lmas elning bolalari bir-birin yer, (*Magol*)
Bir bo‘l endi, qadri baland qaddingni ker,
Xalq bo‘l , elim, xalq bo‘l, elim,xalq bo‘l, elim! ¹

Ushbu she’riy parchada intertekstuallik maqol orqali ifodalangan. ***Bir mayizni qirq bo‘lgan bir tanu -jon*** jumlasida xalqning ahilligiga hamjihatligiga ishora qilyapdi. Bu bilan yozuvchi xalq ochlikda ham nochorlikda ham bir birini qo‘llashi va suyashi lozimligini ta’kidlamoqda.

Bo‘lar elning bolalari bir -birin der,
Bo‘lmas elning bolalari bir-birin yer misralarida esa, xalqda mavjud urf-odat, an’analar bilan insonlardagi oqibat va bir-biriga bo‘lgan ishonchni tasvirlamoqda.

Intertekstuallik nuqtai nazaridan Muhammad Yusuf she’rlarida barqaror birikmalardan ham unumli foydalangan. Barqaror birikmalardan foydalanishda xalqning estetik, tarixiy va axloqiy tajribasiga tayangan. Jumladan, maqol intertekst turi sifatida “Xalq bo‘l, elim” she’riga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Мұхаммад Юсуф. Булбулга бир гапим бор. Т., F.Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
2. Мұхаммад Юсуф. Сайланма: Шеърлар. Достонлар. Хотиралар. — Т.: «Шарқ», 2007.

¹ Yusuf M. Saylanma. – T., 2019. – B.9